



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2023
2-сон



Шахноза Махмудовна Латипова Лизинг хизматларининг атроф-муҳитни муҳофаза қилишда қўлланилиши	74
Умид Холбоевич Холбоев Хизмат кўрсатиш соҳасида хизматлар самарадорлиги ва сифатини оширишга рақобатнинг таъсирини баҳолаш	79
Нилуфар Зиябаевна Юлдашова Агросервисни ривожлантиришда хорижий мамлакатлар тажрибаси	83
Нигина Маруповна Усманова Китоб савдосини самарали ташкил қилишдаги муаммолар ва уларнинг ечимлари бўйича айрим тавсиялар	87
Фарход Анварович Сафаров Хизмат кўрсатиш корхоналари фаолиятини такомиллаштиришда инновацион жараёнларнинг аҳамияти	92
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Алишер Абдуганиевич Эшгаев Халқаро туризм бозорининг ривожланиш тенденциялари ва унда Ўзбекистоннинг иштироки	97
Shovqiddin Erkin o'g'li Abdurasulov Turizm rivojlanishi sharoitida “ekologik turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari	102
Ollonazar Norbek o'g'li Allonazarov Mintaqada mehmonxona xizmatlari faoliyati ko'rsatkichlari tahlili	105
Адхам Итолмасович Рахматов Туризм соҳасида юқори малакали кадрлар билан таъминланганлик даражасига таъсир қилувчи омиллар ва уларни аниқлаш йўллари	109
КИЧИК БИЗНЕС ВА ОИЛАВИЙ ТАДБИРКОРЛИК	
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Кичик тадбиркорлик ва аҳоли турмуш даражаси: ўзаро боғлиқлиги	115
Мехрангиз Олимовна Мамаюнусова Мамлакатимиз худудларида оила хўжаликларининг таркибий тузилиши ва ўзгариши билан боғлиқ масалалари	119
МЕНЕЖМЕНТ ВА МАРКЕТИНГ	
Sanjarbek Komiljon o'g'li Boyjigitov Marketing xizmati samaradorligini baholashning nazariy asoslari va amaliy ifodasi	125
Zulfiya Musayevna Usmanova Kadrlarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish muammolari	129
Кахрамон Сайдуллаевич Махмудов Хизматлар сифатини баҳолаш ва назорат қилишнинг ўзига хос жиҳатлари	132
Shokhista Bahridin kizi Turdieva Specific features of the conceptual framework of social marketing	138
Diyor Haqberdiyevich Xolmamatov Ulgurji savdoda sotuvdan keyingi servisni rivojlantirishning marketing strategiyasi	142
МОЛИЯ, ПУЛ МУОМАЛАСИ ВА КРЕДИТ	
Азиза Махомадризовна Каримова Оценка современного состояния рынка и условия кредитования субъектов туристических услуг Республики Узбекистан	148

Shovqiddin Erkin o‘g‘li Abdurasulov – SamISI “Turizm” kafedraasi assistenti

TURIZM RIVOJLANISHI SHAROITIDA “EKOLOGIK TURIZM” TUSHUNCHASINING IJTIMOY-IQTISODIY MOHIYATI VA XUSUSIYATLARI

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonning turizm sohasi rivojlanishida “Ekologik turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari qarab chiqilgan. Shuningdek, turli il adabiyotlarda “Ekologik turizm” tushunchasi ta’rifining mazmun-mohiyati o‘rganilgan va tadqiqotlar natijasida ilmiy yangilik sifatida “Ekologik turizm” tushunchasiga muallif tomonidan ta’rif keltirib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: turizm, ekologik turizm, ekoturizm, yashil turizm, yumshoq turizm, tabiat, mintaqa, tabiiy hudud, tabiiy resurlar, ekologiya, muhofaza, turistik resurs, mahalliy aholi.

Kirish. Hozirda turizm Yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining asosiy sektorlaridan biri hisoblanadi. Turizm rivojlanishida turistik resurslarning ahamiyati katta hisoblanadi va turizmda tabiiy resurslar katta ahamiyat kasb etadi. O‘zbekistonda ekologik turizmning rivojlanishi uchun noyob turistik resurslarning mavjudligi va undan to‘g‘ri-unumli foydalanish davr talabidir. Shuningdek, tabiiy resurlarga zarar yetkazmaslik uni kelajak avlodga yetkazishda albatta ekologik turizmning ahamiyati katta.

Bizning tadqiqotlarimizda ekologik turizm madaniyatini rivojlantirish orqali tabiatga bo‘lgan munosabatni yaxshi tomonga o‘zgartirish hisoblanadi.

Prezidentimiz SH.M.Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4861-son Farmonida “Turizm iqtisodiyotning asosiy sektori” sifatida ko‘rsatib o‘tilganligi va turizmning boshqa salohiyatli turlarini rivojlantirishda “Ekologik turizm” ham belgilab o‘tilgan.

O‘tgan asrning saksoninchi yillarining boshidan buyon sayohatning eng mashhur turlaridan biri ekoturizmga aylandi, uning maqsadi tabiatni muhofaza qilishdir (ekologik turizmda sayohatchilar faqat ekologik toza transportdan foydalanadilar, maxsus belgilangan joylarda to‘xtashlar tashkil qilinadi, ruxsat etilgan joylarda mevalar, dorivor o‘simliklarni teradilar, turar joylari tabiiy zararsiz materiallardan quriladi). Ekologik turizm mahsulotini yaratishga ixtisoslashgan tashkilotlar tabiatni muhofaza qilish yoki tabiiy hududlarni boshqarish bo‘yicha majburiyatlarni o‘z zimmlariga oladilar; muhofaza etiladigan tabiiy hududlar va mahalliy aholi bilan hamkorlikni yo‘lga qo‘yishadi; o‘z biznesining uzoq muddatda hayvonot dunyosini muhofaza qilish va mahalliy aholi punktlarini rivojlantirishga real hissa qo‘shishini ta’minlashga intilishadi; mahalliy aholi va sayyohlar o‘rtasidagi o‘zaro tushunishlarini yaxshilashga harakat qiladilar. O‘zbekistonda ekologik turizm Yevropa mamlakatlariga qaraganda kechroq shakllana boshladi va uning hozirgi bosqichdagi holatini tahlil qilish shuni ko‘rsatdiki, turizmning ushbu turining o‘ziga xos roli mamlakatimizda boshqaruvning barcha darajalarida hali yetarlicha e’tirof etilmagan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Turizm rivojlanishida “Ekologik turizm” tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlarini o‘rganib chiqishda turli nashrlarda chop etilgan bir nechta ta’riflarini ko‘rib chiqdik.

Unga ko‘ra, “Ekologik turizm” atamasi XX asrning 80-yillari birinchi yarmida meksikalik ekolog Gektor Seballos-Laskurain (ispan. Hector Ceballos-Lascurain) tomonidan konferensiyalarning birida rasman qo‘llanilgan. U dam olish va ekologiya o‘rtasidagi uyg‘unlik g‘oyasini aks ettirdi va katta shuhrat qozondi. Ushbu ta’rifning variantlaridan biri, “Ekoturizm - tabiiy resurslardan oqilona foydalanishga asoslangan rekreatsiyaning faol shakli sifatida hisoblanishi” ekanligini ta’kidlagan.

Mutaxassis A. B.Lukichev Ekologik turizm (ekoturizm, yashil turizm) – antropogen ta’sirga nisbatan ta’sir ko‘rsatmagan tabiiy hududlarga tashrif buyurishga qaratilgan barqaror turizmning bir turi deb hisoblaydi.

V.Berejnix esa “Ekoturizm – bu turizm industriyasining tabiiy muhitning asosiy resursini

yoki uning alohida komponentlarini (tabiat yodgorliklari, hayvonlar yoki o‘simliklarning ayrim turlari va boshqalar) saqlab qolishdan hayotiy manfaatdor bo‘lgan yagona yo‘nalishdir” degan ta’rifni beradi.

M.B.Birjakov Ekoturizmda tabiatga minimum ta’sir qilib, tabiat bilan birga bo‘lish natijasida uning boyliklarini muhofaza qilish, asrab qolish tuyg‘ulari hosil bo‘lishi deb hisoblaydi.

Bulardan tashqari xalqaro tashkilotlar tomonidan ham quyidagicha ta’riflar berilgan.

Jumladan: Xalqaro tabiatni muhofaza qilish ittifoqi - Ekologik turizm yoki ekoturizm – tabiatni muhofaza qilishga hissa qo‘shadigan, atrof-muhitga “yumshoq” ta’sir ko‘rsatadigan, ijtimoiy-iqtisodiy faollikni ta’minlaydigan tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o‘rganish va ulardan bahramand bo‘lish maqsadida buzilmagan tabiiy hududlarga ekologik mas’uliyatli sayohatdir. Mahalliy aholining ijtimoiy-iqtisodiy faoll ishtiroki va ularning ushbu faoliyatdan foyda olishi hisoblanadi.

Jahon yovvoyi tabiat fondi - Ekoturizm – bu hududning tabiiy va madaniy va etnografik xususiyatlari haqida tasavvurga ega bo‘lish uchun tabiati nisbatan tegilmagan joylarga sayohatni o‘z ichiga olgan, tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foyda keltiradigan, ekotizimlar yaxlitligini buzmaydigan va shunday iqtisodiy sharoitlarni yaratadigan turizmdir.

Avstraliyaning Milliy ekoturizm strategiyasi, Turizm departamenti (Kanberra, 1992) ta’rifiga ko‘ra, Ekoturizm – bu ekologik ta’lim va ma’rifat dasturlari va ekologik barqarorlik tamoyillariga muvofiq amalga oshiriladigan tabiatga yo‘naltirilgan turizm.

Tabiatni muhofaza qilish xalqaro ittifoqi (IUCN) (Ceballos-Lascrain, 1993a) - Ekoturizmni “tabiat va madaniy diqqatga sazovor joylarni o‘rganish va undan zavqlanish maqsadida nisbatan buzilmagan tabiiy hududlar orqali ekologik jihatdan mas’uliyatli turizm” deb ta’riflaydi. Tabiatni muhofaza qilishga hissa qo‘shadigan, atrof-muhitga "yumshoq" ta’sir ko‘rsatadigan, mahalliy aholining faol ijtimoiy-iqtisodiy ishtirokini va ularning ushbu faoliyatdan foyda olishini ta’minlaydigan uslub.

Xalqaro ekoturizm jamiyati (The International Ecotourism Society) – “Ekoturizm - bu tabiatni asrash va mahalliy aholi farovonligini oshirishga yordam beradigan tabiiy hududlarga mas’uliyatli sayohatdir” degan ta’riflarni aytib o‘tgan.

Yurtimizning olimlari ham “Ekoturizm”ni quyidagicha ta’riflaydi.

R.Xayitboev “Ekoturizm – faqat tabiat bag‘rida dam olish, o‘rganish, kuzatish, tomosha qilish va zavqlanish natijasida tabiatni, biologik xilma xillikni saqlash muhofaza qilish tadbirlariga ixtiyoriy moddiy yordam berishga qaratilgan, mahalliy aholining milliy madaniyatini, merosiy an’analarini, yashash tarzini hurmat qilishga asoslangan turistik faoliyatdan iborat” deb hisoblaydi.

A.N.Norchayev “Ekoturizm – tabiiy turizm bo‘lib, tabiat muhitini hosil qilish va tushinishni o‘z ichiga oladi. Uning menejmenti shunday amalga oshiriladiki, natijada bu faoliyat ekologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan barqaror bo‘lib, “tabiiy muhit”, madaniy tarkiblarni, “ekologik barqarorlik” mahalliy aholi uchun tegishli daromadni va foydalanilayotgan resurslarning uzoq muddatli muhofaza qilinishini o‘z ichiga oladi” degan binqancha ta’riflar mavjud.

Tadqiqot metodologiyasi. Izlanishlarimiz natijasida O‘zbekistonning turizm sohasi rivojlanishida “Ekologik turizm” tushunchasi ijtimoiy-iqtisodiy mohiyati va xususiyatlari o‘rganilgan bo‘lib, ekologik turizmni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy xulosalar va taklif-tavsiyalar ishlab chiqilgan. Tadqiqotni olib borish jarayonida ilmiy abstrakt fikrlash, mantiqiy yondashuv kabi usullardan foydalanildi. Ilmiy xulosalarning tushunarligini ta’minlash uchun tizimli usullaridan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Ekologik turizmning o‘ziga xos xususiyatlari shundaki, u tabiat bilan muloqot qilish istagini uyg‘otadi va qondiradi, tabiat va madaniyatga salbiy ta’sir ko‘rsatishning oldini oladi, turoperatorlar va turistlarni tabiatni asrash va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ko‘maklashishga undaydi. Shunday qilib, ekoturizm tabiiy hududlarni barqaror rivojlantirishning

muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Ko‘rinib turibdiki, ekoturizmning aksariyat ta’riflari barqarorlikka erishish maqsadiga yoki “tabiiy va madaniy muhitga salbiy ta’sirlarni minimallashtirish”, “foydalanish uchun iqtisodiy daromadlarni oshirish” bo‘ladimi, ushbu maqsadga erishish vositalariga asoslangan. Tabiatni muhofaza qilish yoki ekologik ta’lim. Shu sababli, Kreyg Lindberg (Lindberg va boshq., 1998) oddiyroq va umumiyroq kontseptual ta’rifdan foydalanishni taklif qiladi: “ekoturizm - bu barqaror va tabiatga asoslangan turizm va rekreatsiya”. Turizmdagi barqarorlik esa turizmning ekologik, ijtimoiy-madaniy va iqtisodiy ta’sirining ijobiy umumiy muvozanatini hamda tashrif buyuruvchilarning bir-biriga ijobiy ta’sirini nazarda tutadi. Shunday qilib, ekologiya, iqtisodiyot va ijtimoiy rivojlanish nuqtayi nazaridan eng yuqori umumiy ijobiy ta’sir ko‘rsatadigan turizm faoliyati turlari yanada barqarordir.

Laos, Keniya, Tanzaniya, Ekvador, Kosta-Rika, Nepal, Avstraliya, Yangi Zelandiya va Janubiy Afrika yetakchi davlatlari. Yevropa va AQSHning rivojlangan mamlakatlarida ekoturistlar ko‘pincha o‘z mamlakatlariga (milliy bog‘larga) sayohat qilishadi.

Ekoturizm jahon iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri bo‘lib, jahonda ekoturizmning o‘sishi, ekspertlarning fikricha, yiliga 20-30 %ni tashkil etadi. 2020-yilgi pandemiyadan oldin sanoat kuniga 1 milliard dollargacha daromad keltirdi; dunyodagi barcha sayyohlarning taxminan uchdan bir qismi ekoturistlardir.

O‘zbekistonda ekoturizm o‘z rivojlanishida bir qator jiddiy muammolarga duch kelmoqda, ular orasida:

- ekoturizm faoliyati ishtirokchilarining tarqoqligi;
- ixtisoslashgan turoperatorlarning yetishmasligi;
- O‘zbekistonda ekoturizm uchun huquqiy bazaning ishlab chiqilmaganligi;
- transport xizmatlarining yuqori narxi;
- asossiz yuqori narxlarda past darajadagi xizmat ko‘rsatish (ayniqsa, turar joy va ovqatlanish xizmatlari uchun);
- O‘zbekiston aholisi o‘rtasida ekologik madaniyatning kam rivojlanganligi, ekologik huquq normalarini e’tiborsiz qoldirish;
- turizmga ekologik infratuzilma va ekologik texnologiyalarning sust rivojlanganligi.

Binobarin, ekoturizm sohasidagi barcha ishtirokchilar O‘zbekistonda ekoturizmni boshqarishning samarali tizimini shakllantirish va mamlakatni xalqaro ekoturizm bozorida yanada ilgari surish muammosiga duch kelishmoqda.

Ekologik turizmni samarali boshqarish masalalariga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Shu bilan birga, dunyodagi ekologik vaziyatning yanada yomonlashishi, sayyohlarning intilishlaridagi ustuvorliklarning o‘zgarishi (nisbatan tegilmagan tabiatda dam olish istagi).

Turizmga o‘zbekistonlik ishtirokchilarning ekologik turizm sohasidagi adekvat munosabati zarurati bilan bog‘liq yangi muammolarni hal qilishni talab qiladi. Afsuski, ushbu sohadagi tadqiqotlar tarqoq, parchalanib ketgan va zamonaviy va kelajakdagi sharoitlarda O‘zbekistonda ekoturizmni rivojlantirish uchun kompleks uslubiy yordamni ishlab chiqishdan uzoqdir. Ushbu muammoni hal qilish O‘zbekistonning alohida hududlarida ham, butun mamlakatda ham ekologik turizm sohasini samarali boshqarishning istiqbolli shakllari va usullarini ishlab chiqishni ta’minlaydi, bu ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning strategik maqsadlariga obyektiv javob beradi.

Xulosa va takliflar. Yuqorida keltirilgan fikrlar va mulohazalar tahlili natijasida biz “Ekologik turizm” tushunchasiga bergan ta’rifimizni keltirib o‘tdik.

Demak, bizning fikrimizcha “Ekologik turizm – tabiat va tabiiy resurslarni muhofaza qilish orqali mahalliy aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy daromad keltiradigan, ma’lum bir hududning ekotizimlarining yaxlitligini saqlagan holda tabiiy, madaniy va etnografik xususiyatlari to‘g‘risida tasavvurga ega bo‘lishga asoslangan turizm faoliyati hisoblanadi”

Turizmning salohiyatli turlaridan hisoblangan ekologik turizm rivojlanishi bo‘yicha quyidagi taklif va tavsiyalarni berib o‘tamiz:

- bugungi kunda ekologik turizm rivojlanishida kadrlar salohiyatiga e’tiborni kuchaytirish lozim, bunda oliy toifali kadrlarga ko‘proq urg‘u berish ko‘zda tutilishi kerak bo‘ladi;

- mamlakatimizda zamonaviy ekologik turizm xizmatlarining rivojlanishida xorijiy mamlakatlar tajribalarini o'rganishga va tajribalar ortirishga e'tibordan qolmasligi zarur deb hisoblaymiz;

- ekologik turizmning rivojlanishida huquqiy-me'yoriy hujjatlarni shakllantirishda albatta xalqaro huquqiy kelishuvlarni hisobga olish, bunda turizm xavfsizligiga ham ko'proq e'tibor berilishi lozim deb hisoblaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tuxliyev I.S., Abduhamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik. – T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 42-43 betlar.
2. Rahimov Z.O., Ibadullayev N.E., Haitboyev R. Turopereyting. Darslik. – Toshkent: «Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi», 2021, 12-34 betlar.
3. Rahimov Z.O. Turizm tadbirkorlik. O'quv qo'llanma. – Samarqand: SamISI, 2019, 41-64 betlar.
4. Haitboyev R. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. 14-19 betlar.
5. Norchaev A.N., Rabbimov E.T. Ekologik turizm. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010 y. 7-12 betlar.

<p>Ш.Абдурасулов</p> <p>Социально-экономическая сущность и характеристика понятия «экологический туризм» в условиях развития туризма</p> <p>Аннотация: в данной статье рассмотрены социально-экономическая сущность и особенности понятия «Экологический туризм» в развитии туристической сферы Узбекистана. Также была изучена сущность определения понятия «Экологический туризм» в различной литературе, и в результате исследования определение понятия «Экологический туризм» было дано автором как научная новизна.</p> <p>Ключевые слова: туризм, экологический туризм, экотуризм, зеленый туризм, мягкий туризм, природа, экосистема, регион, природная территория, природные ресурсы, экология, охрана, туристский ресурс, местное население.</p>	<p>Sh.Abdurasulov</p> <p>Socio-economic essence and characteristics of the concept of “ecological tourism” in the context of tourism development</p> <p>Abstract: this article discusses the socio-economic essence and features of the concept of “Ecological tourism” in the development of the tourism sector in Uzbekistan. The essence of the definition of the concept of “Ecological tourism” in various literature was also studied, and as a result of the study, the definition of the concept of “Ecological tourism” was given by the author as a scientific novelty.</p> <p>Keywords: tourism, ecological tourism, ecotourism, green tourism, soft tourism, nature, ecosystem, region, natural area, natural resources, ecology, protection, tourist resource, local population.</p>
--	---

Ollonazar Norbek o'g'li Allonazarov – Urganch Davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

**MINTAQADA MEHMONXONA XIZMATLARI FAOLIYATI
KO'RSATKICHLARI TAHLILI**

Annotasiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatida mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarining rivojlanish tendensiyalarini va mehmonxonalar faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari tahlili ochib berilgan.

Kalit so'zlar: mehmonxona, turizm, sayyoh, mehmonxona industriyasi, mehmonxona xizmatlari, joylashtirish vositalari, hudud.

Kirish. Bugungi kunda turizm sohasi dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining asosiy drayverlaridan biriga aylandi. Shuningdek, turizm mamlakat eksport salohiyatini oshirib, iqtisodiyotda yangi ishchi o'rinlarini yaratishga xizmat qilmoqda. 2022-yil natijalariga ko'ra “turizm ko'rsatilgan xizmatlar dunyo YAIMni 6,4 %ini tashkil qilib, 1,3 trln. AQSH dollariga yetgan, shuningdek sohada band bo'lganlar soni 379 mln. nafarni tashkil qilib, 10 ish o'rnidan bittasi turizmga tegishli”[1] bo'lgan. Mustaqillik davrlarida O'zbekiston o'z turizm industriyasini zamon talablariga mos ravishda qaytadan tashkil qildi. Turizm sohasida amalga oshirilgan tashkiliy va tarkibiy o'zgarishlar natijasida, infratuzilmalar rivojlanib, mamlakat hududlaridagi

ISSN 2091-5187

∞ “СЕРВИС” ∞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

2.06.2023 йилда теришга берилди. 21.06.2023 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84_{1/8}. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 12,5. Адади 100 нусха. Буюртма № 0045А/23.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2023